


# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 3-fevral, № 26 (8649) Shanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# QISHLOQ XO‘JALIGI EKSPORTINI OSHIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev meva-sabzavotchilik va oziq-ovqat tarmog‘ini rivojlantirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.**

2023-yilda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi 4,1 foiz o‘sgan. Bu sohadagi eksport qariyb 2 milliard dollarni tashkil etgan. Lekin mavjud salohiyat bundan ancha yuqori.

Shu bois davlatimiz rahbari 18-yanvar kuni eksport va sanoat masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida meva-sabzavotchilikka doir vazifalarni ham ko‘rsatib o‘tgan edi. Xususan, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligiga yangi salohiyatli bozorlar topish, eksportbop mahsulotlar ekilishini tashkillashtirish bo‘yicha ham mas’uliyat belgilandi.

Agentlik tomonidan o‘simliklarni zararli unsurlardan himoya qilish, fitosanitar toza mahsulotlar yetishtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Jumladan, hududlardagi statsionar va mobil laboratoriyalar orqali 1 million 40 ming gektar yerning tuproq tahlili o‘tkazilib, mineral o‘g‘itlarni qo‘llash me’yori ilmiy asosda belgilab berildi. Sohada 7 ta yangi axborot tizimi joriy qilinib, 40 ta yo‘nalish raqamlashtirildi.

Xalqaro tashkilotlar va moliya institutlarining 20 million dollarga yaqin grant mablag‘lari jalb etilib, laboratoriya va uskunalar yangilandi. Dala va bog‘larga kimyoviy ishlov berish, import va eksport mahsulotlarini ekspertizadan o‘tkazish izchil davom ettirilmoqda.

Bunday chora-tadbirlar meva-sabzavotlarimiz sifati va xavfsizligida muhim omil bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda 80 ta davlatga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti uchun 620 ta fitosanitar ruxsatlar olindi, ular bilan elektron ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yildi. “GSP+” tizimi doirasida 200 ming gektar maydon xalqaro talablarga moslashtirildi.

Yig‘ilishda joriy yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar muhokama qilindi.

Mutasaddilar sohadagi ishlar ko‘lamini kengaytirib, bu yil qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini 3,5 milliard dollarga yetkazish mumkinligini aytdi.

Buning uchun, avvalo, meva-sabzavotlar, poliz ekinlari, uzum va dukkakli mahsulotlar yetishtirish ko‘paytiriladi. Hududlarda yana 20 ta mobil laboratoriya tashkil etilib, “uzagrolab.uz” elektron platformasiga integratsiya qilinadi. Pestitsidlar muomalasidagi barcha jarayon raqamlashtirilib, sifatsiz pestitsidlarning yurtimizga olib kelinishi va noqonuniy savdosiga barham beriladi.

6 mingta bog‘, 3 mingdan ziyod tokzor va dala maydonlari, 344 ta qadoqlash korxonasi xorijiy fitosanitariya talablariga muvofiqlashtiriladi. Yuqori samarali entomofaglar olib kelinib, zararkunanda hasharotlarga qarshi yangi turdagi biologik kurash yo‘lga qo‘yiladi.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali eksport hajmlari nisbatan qimmat bozorlarga yo‘naltiriladi. Shuningdek, yana 8 ta davlatga fitosanitar ruxsat olinadi. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirilgan xalqaro ko‘rgazmalarda eksportchi korxonalarimiz ishtiroki kengaytirilib, aniq buyurtmalar shakllantiriladi. Farg‘ona, Samarqand va Toshkent xalqaro aeroportlari hududida meva-sabzavot mahsulotlarni eksport qilishga qaratilgan zamonaviy infratuzilmalar tashkil etiladi.

Xorij tajribasi asosida o‘simliklar himoyasi xodimlarining malakasi oshiriladi. Xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda har bir mahsulotni yetishtirish, saqlash, qadoqlash va yetkazib berish bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqiladi.

Davlatimiz rahbari oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha qo‘shimcha topshiriqlar berdi.

**O‘zA.**

O‘zbekiston Respublikasining QONUNI

# Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 15-avgustda qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 24-noyabrda ma’qullangan

**1-bob. Umumiy qoidalar**

**1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi**

Ushbu Qonunning maqsadi tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

**2-modda. Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risidagi qonunchilik**

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun hamda boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

**3-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**yerlarni rekultivatsiya qilish** – buzilgan tuproq qoplamini tiklash, uni foydalanish uchun yaroqli holga keltirish;

**tuproq** – yer yuzasining tabiiy yoki antropogen omillar ta’siri natijasida shakllanadigan, o‘simliklarning yashashi uchun zarur unumdorlik xususiyatlariga ega bir nechta qatlamdan iborat bo‘lgan ustki qismi;

**tuproqning buzilishi** – foydali qazilmalarni qazib olish, geologiya-qidiruv, geodeziya, qurilish ishlarini va boshqa ishlarni amalga oshirish jarayonida tuproq qoplamining fizik jihatdan buzilishi, qisman yoki to‘liq yo‘q qilinishi;

**tuproq degradatsiyasi** – tabiiy yoki antropogen omillar ta’siri natijasida tuproq unumdorligining pasayishiga, tuproqning ekologik-meliorativ holati yomonlashishiga, shuningdek, tuproqning miqdor va sifat jihatidan salbiy o‘zgarishlariga olib keladigan jarayonlar majmui;

**tuproqning ifloslanishi** – tuproqning sifatini yomonlashtiradigan hamda atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan zararli kimyoviy va radioaktiv moddalarning, neftning, neft mahsulotlarining hamda mikroorganizmlarning tuproqqa tushishi va to‘planishi;

**tuproqni muhofaza qilish** – tuproqdan oqilona foydalanishga va uni saqlashga, uning ifloslanishi, buzilishi hamda degradatsiyasining oldini olishga, shuningdek, tabiiy va texnogen ta’sirlardan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, xo‘jalik tadbirlari va boshqa tadbirlar majmui;

**tuproq sifati** – tuproq unumdorligini belgilaydigan xususiyatlar;

**tuproq sifatini baholash (tuproq bonitirovkasi)** – tuproqning sifati va tabiiy unumdorlik qobiliyatini 100 balli shkala bo‘yicha qiyosiy baholash;

**tuproqni tiklash** – tuproqning holatini, sifatini yaxshilashga va unumdorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar;

**tuproq unumdorligi** – tuproqning o‘simliklarni oziqli moddalar, issiqlik, namlik, havo va boshqa yashash faoliyati omillari bilan ta’minlaydigan xususiyatlari;

**tuproqning unumdor qatlami** – tuproqning o‘simliklar o‘sishi uchun qulay xususiyatlarga ega bo‘lgan ustki qatlami;

**tuproq eroziyasi** – tuproqning yog‘ingarchiliklar, sug‘orish va shamol ta’sirida yemirilish jarayoni;

**tuproqning holati** – tuproqning tarkibini, tuzilishini va xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar majmui.

**4-modda. Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi asosiy prinsiplar**

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

inson sog‘lig‘ining va atrof-muhit xavfsizligining ustuvorligi;

**(Davomi 2-betda).**

O‘zbekiston va Kanada:

# HAMKORLIK ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI

*Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Kanadaning yangi tayinlangan elchisi Alan Xemson bilan uchrashuv o‘tkazdi.*

**Muloqot**

Muloqot avvalida Senat Raisi elchini yuksak va mas’uliyatli vazifaga tayinlangani bilan samimiy qutlab, uning kelgusi ishlariga muvaffaqiyatlar tiladi.

Uchrashuvda O‘zbekiston va Kanada o‘rtasidagi konstruktiv hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, parlamentlararo muloqot darajasini oshirish hamda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Suhbat davomida ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda savdo-iqtisodiy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishi, tog‘-kon, energetika, neft-gaz sanoatida istiqbolli loyihalarni yo‘lga qo‘yish lozimligi ta’kidlandi.

Shuningdek, ilmiy-texnikaviy, jumladan, ta’lim sohasidagi aloqalarni rivojlantirish, turizm, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo‘nalishlarida hamkorlikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi.

O‘zaro munosabatlarning yana bir muhim yo‘nalishi sifatida hududlararo aloqalarni rivojlantirish masalalariga ham e’tibor qaratildi. Bunda ikki mamlakatning shaharlari o‘rtasida birodarlashgan aloqalarni o‘rnatish muhimligi aytildi.

Parlamentlararo munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish, ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlarining tegishli qo‘mitalari o‘rtasida o‘zaro tashriflarni uyushtirish orqali yaqin hamkorlik o‘rnatish muhimligi qayd etildi.

Uchrashuv yakunida diplomat mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar bundan keyin ham yanada rivojlanishi uchun bor imkoniyat va salohiyatini ishga solishini bildirdi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Munosabat**

2024-yilgi davlat dasturi loyihasi:

# ANIQ MAQSAD VA VAZIFALAR AHOLI FAROVONLIGIGA YO‘NALTIRILGAN

***Avval xabar qilinganidek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilgan bo‘lib, unda mamlakatimiz taraqqiyotini mustahkamlash, aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan muhim maqsad va vazifalar belgilanmoqda.***

***Ayni paytda loyihadagi ustuvor yo‘nalishlar Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo‘mitalar yig‘ilishlarida ko‘rib chiqilib, bir qator takliflar ilgari surilmoqda.***

***Bu haqda quyi palata deputatlari o‘z munosabatlarini bildirdi.***



3

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasida**

# DARYO VA KO‘LLARNING EKOTIZIM BARQARORLIGIDAGI AHAMIYATI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi tomonidan 2-fevral — Butunjahon suv-botqoq hududlari kuni munosabati bilan daryo va ko‘llarning ekotizim barqarorligidagi ahamiyatiga bag‘ishlangan seminar o‘tkazildi.*

O‘zbekistonda suv-botqoq hududlari qariyb bir million gektarni tashkil etib, 500 dan ortiq ko‘llar mavjud. Respublika hududi orqali ko‘chib yuruvchi qushlarning ko‘plab turlari uchun suv-botqoq hududlari qulay qo‘nimgoh bo‘lib xizmat qilmoqda. Daryolar, ko‘llar, suv omborlari va sug‘orish tizimlarida 130 ga yaqin qush turlari uchraydi. “Qizil kitob”ga kiritilgan qushlarning esa 30 dan ortiq turining hayoti suv-botqoq hududlari bilan uzviy bog‘liq.

Yig‘ilishda suv-botqoq hududlarining o‘rmon hududlariga nisbatan uch barobar kamayib ketishi ehtimoli borligi, bu jiddiy muammo bo‘lib, bunday yerlarni saqlash insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlandi.

3

**Senator va hayot**

# MUROJAATLARGA IJOBIY YECHIM TOPILDI

*Ma’lumki, hududlarda aholining dardiga quloq tutish, ularni qiynab kelayotgan masala va muammolarni hal etish borasida senatorlar tomonidan tizimli ishlar olib borilmoqda.*

Joylarda bevosita aholi vakillari va mahalliy Kengashlar deputatlari bilan uchrashuvlar hamda ijtimoiy obyektlarga tashriflar chog‘ida ko‘tarilgan va o‘z yechimini kutayotgan masalalar nazoratga olinmoqda.

Xususan, senatorlarning faol ishtiroki bilan Qashqadaryo viloyatidagi bir qator masalalarga ijobiy yechim topildi. Masalan, senatorlarning viloyatda o‘tkazgan uchrashuvlari chog‘ida xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi deputati A. Bozorov tomonidan Qamashi tumanidagi G‘ishtli qishlog‘ining 6 ming 600 dan ziyod aholisini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasini davlat dasturiga kiritish bo‘yicha ko‘mak so‘ralgan edi.

Aytish joizki, ushbu murojaat Oliy Majlis Senati Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasining so‘roviga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda “O‘zsuvta’minot” AJ tomonidan o‘rganib chiqildi. Pirovardida “G‘ishtli” MFYdagi 3 ta suv olish inshootiga yangi nasos va qo‘shimcha elektr jihozlar o‘rnatildi hamda aholi ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

Shuningdek, xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi deputati Y. Inoyatovning Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasining nasos agregatlari bir maromda ishlashi uchun uni zarur elektr energiya bilan ta’minlashda amaliy yordam so‘rab qilgan murojaati ijobiy hal etildi.

3

# 2023-YILDA O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASI 11 FOIZGACHA PASAYDI




**2022-yilda kambag‘allik darajasi 17 foizdan 14 foizgacha kamaygan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 11 foizgacha tushdi va qariyb 1 million aholi daromadi belgilangan kambag‘allik chegarasidan oshgani qayd etildi.**

**Kambag‘allik darajasining sezilarli pasayishi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo, Andijon viloyatlarida qayd etildi.**

**So‘nggi uch yil davomida aholi daromadlari tarkibida ish haqining ulushi 70,2 foizdan 62,7 foizga pasaydi va kichik biznesdan olinadigan daromadlar ulushi esa 0,7 foizdan 2,9 foizga oshdi.**

***Manba:*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi.*

O‘zbekiston Respublikasining
QONUNI

# Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

ochiqlik va shaffoflik;

yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkalari ijarachilari huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining ustuvorligi.

**5-modda. Tuproqni muhofaza qilish obyekti**

Tuproqni muhofaza qilish obyekti yer fondining barcha toifalaridagi tuproqning unumdor va tuproq hosil qiluvchi qatlamlaridan iboratdir.

**6-modda. Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish tadbirlari**

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish tadbirlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni amalga oshirish;

ifloslangan, buzilgan yoki boshqacha tarzda degradatsiyaga uchragan tuproqni tiklash;

tuproq monitoringini yuritish;

yer egalarining, yerdan foydalanuvchilarning, yer uchastkalari ijarachilarining tuproq muhofazasini ta’minlashga, undan oqilona foydalanishga hamda tuproq unumdorligini saqlashga doir tegishli majburiyatlarini belgilash;

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish bo‘yicha iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishda manfaatdorlik mexanizmini qo‘llash;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish chog‘ida tuproq va suv manbalarining sho‘rlanishini, botqoqlanishi hamda ifloslanishini istisno etadigan usullardan foydalanish;

sho‘rlangan yerlarda meliorativ tadbirlarni amalga oshirish;

yerlarni davriy ravishda tekislash;

ihota daraxtzorlarini barpo etish, qum ko‘chishining oldini olish va uni mustahkamlash;

hududiy sharoitlardan kelib chiqqan holda iqtisodiy jihatdan samarali dehqonchilik tizimlaridan foydalanish;

qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish;

qiyaliklarda suv eroziyasiga qarshi kurashish uchun ko‘p yillik o‘tlar, butalar va daraxtlar ekish;

shamol eroziyasiga qarshi tadbirlarni qo‘llash;

kollektor-drenaj va sug‘orish tarmoqlarini, shuningdek, suv havzalarini tozalash chog‘ida olingan tuproqdan foydalangan holda qumli, qumloq va yengil qumoq tuproqlarning mexanik tarkibini yaxshilash;

sug‘oriladigan yerlarda ilmiy asoslangan tavsiyalarga muvofiq eroziyaga qarshi tadbirlarni qo‘llash, sug‘orish rejimlariga va normalariga rioya etish;

tuproqning texnogen zichlanishining oldini olish;

mineral, organik, organik-mineral, bakterial o‘g‘itlar hamda boshqa o‘g‘itlarni, shuningdek, kompost va sideratlarni tuproq-iqlim sharoitlari va o‘simliklarning ehtiyojlari hisobga olingan holda qo‘llash.

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish tadbirlari qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

**7-modda. Shaharsozlik faoliyatini yoki qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish chog‘ida tuproqni muhofaza qilishga va undan oqilona foydalanishga doir talablar**

Shaharsozlik faoliyatini yoki qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish chog‘ida tuproqni muhofaza qilishga va undan oqilona foydalanishga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

obyektlarni joylashtirish va ularni qurish loyihalarida – tuproqqa oid tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda tabiatni muhofaza qilish hamda sanitariya talablariga rioya etishga va tuproq unumdorligini saqlashga qaratilgan tadbirlarni nazarda tutish;

obyektlarni qurish loyihalarida – yer uchastkalaridagi mavjud tuproqni saqlab qolish ustuvorligini belgilash;

obyektlarni loyihalashtirish chog‘ida loyiha hududiga kirmaydigan tutash hududlarda – tuproq ifloslanishining, buzilishining yoki boshqacha tarzdagi degradatsiyasining oldini olish choralarini ko‘rish;

obyektlarni loyihalashtirish chog‘ida – tuproqning unumdor qatlamini sidirib olish, saqlash va undan foydalanish tadbirlarini belgilash;

loyihalashtirilgan obyektlar qurilishi chog‘ida – tuproqni muhofaza qilish talablariga rioya etish.

Shaharsozlik faoliyatini yoki qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish chog‘ida tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq boshqa talablar ham belgilanishi mumkin.

**8-modda. Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish ishlarini moliyalashtirish**

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish ishlarini moliyalashtirish quyidagilar hisobidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari;

yer egalarining, yerdan foydalanuvchilarning, yer uchastkalari ijarachilarining, shuningdek, korxonalar va tashkilotlarning mablag‘lari;

homiylik xayriyalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

**2-bob. Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasini davlat tomonidan tartibga solish**

**9-modda. Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari**

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish bo‘yicha investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish;

tuproqqa oid xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish;

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasida ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning sifati yaxshilangan (bonitet balli oshgan) taqdirda soliq to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq yer solig‘ini to‘lashga doir imtiyozlar berish.

**10-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi vakolatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlaydi;

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi hamda ularning amalga oshirilishini tashkil etadi, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qiladi;

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladi;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tuproqni muhofaza qilish hamda uning unumdorligini oshirish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish ustidan davlat nazorati amalga oshirilishini ta’minlaydi;

tuproq monitoringini amalga oshirish tartibini, tuproqning unumdor qatlamini sidirib olish, saqlash va undan foydalanish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**11-modda. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi vakolatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi:

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi;

davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni, strategiyalarni ishlab chiqadi, amalga oshiradi hamda nazorat qiladi;

tuproqni muhofaza qilishga va uning unumdorligini oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi hamda ularni o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladi;

tuproqqa oid va agrokimyoviy tadqiqotlar olib boradi, ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqadi;

degradatsiyaga uchragan yerlarning hisobini yuritadi va ularni muvofiqlashtiradi;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan maqsadli foydalanilishi, almashlab ekishning tashkil etilishi, rivojlantirilishi va olib borilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

tuproqdan oqilona foydalanilishini va uning muhofaza qilinishini iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirishni qonunchilikka muvofiq amalga oshiradi;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga tuproqning buzilishiga yoki yo‘q qilinishiga olib keladigan harakatlar sodir etilgan, shuningdek, tuproqni tiklash bo‘yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda choralar ko‘rish to‘g‘risida takliflar kiritadi;

tuproqqa oid tadqiqotlar asosida o‘simliklar uchun mineral o‘g‘itlar va boshqa turdagi o‘g‘itlarning maqbul bo‘lgan normalarini belgilaydi;

qishloq xo‘jaligi yerlarining rekultivatsiya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**12-modda. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi vakolatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi:

yerlarni sug‘orishning suvni tejaydigan, tuproqni himoyalaydigan texnologiyalarini joriy etadi;

sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, barqarorligini ta’minlash va degradatsiyaning oldini olish choralarini ko‘radi;

kollektor-drenaj tarmoqlari va inshootlarining ishlash qobiliyatini ta’minlash bo‘yicha choralar ko‘radi, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini baholaydi va hisobotini yuritadi;

ilmiy-texnika yutuqlarini, shuningdek, suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarning innovatsion usullarini hamda ilg‘or tajribani joriy etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**13-modda. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi vakolatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi:

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

o‘simliklarni himoya qilish vositalarini, ularning o‘sishini tezlashtiruvchi moddalarni, mineral o‘g‘itlarni, boshqa kimyoviy moddalar va preparatlarni transportda tashish, saqlash hamda qo‘llash chog‘ida tuproqni ifloslanishdan muhofaza qilishni amalga oshiradi;

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirishga oid tadbirlarning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkalari ijarachilari tomonidan bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

vaqtincha foydalanishga berilgan hamda qurilish, foydali qazilmalarni qazib olish va boshqa ta’sirlar natijasida buzilgan yerlarning tiklanishi, ular foydalanish uchun yaroqli holga keltirilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

cho‘llanishning oldini olish, o‘rmonlarni tiklash hamda ihota daraxtzorlarini barpo etish tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

tog‘ yonbag‘irlarida, jarliklarda, tashlandiq, yaylov va foydalanishdan chiqarilgan yerlarda eroziyaga qarshi ko‘chatzorlar (daraxtzorlar) yaratilishini tashkil etadi;

o‘rmon meliorativ dehqonchilik tizimiga ilmiy yutuqlarni va ilg‘or tajribani joriy etadi;

o‘rmon fondi yerlarining rekultivatsiya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**14-modda. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi vakolatlari**

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari:

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasida qabul qilingan davlat dasturlarining hamda boshqa dasturlar va strategiyalarning amalga oshirilishini tashkil etadi;

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi hududiy dasturlarni amalga oshiradi;

shaharsozlik faoliyatini, geologik qidiruvni va foydali qazilmalarni qazib olishni, shuningdek, qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish chog‘ida tuproqning sidirib olingan unumdor qatlamini saqlash uchun joylarni belgilaydi. Bunda joylar buzilgan va unumdorligi past bo‘lgan qishloq xo‘jaligi yerlaridan belgilanadi;

mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan tuproqni muhofaza qilishga va uning unumdorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni belgilaydi.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**3-bob. Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish. Tuproqdan samarali foydalanish**

**15-modda. Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi davlat nazorati**

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi davlat nazorati quyidagilarga nisbatan amalga oshiriladi:

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish, tuproq holatining saqlanishi sohasidagi talablar va normalarning bajarilishiga;

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish, tuproqning holatini yaxshilash, shuningdek, tuproq degradatsiyasining, buzilishi va ifloslanishining oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishiga;

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etishga doir choralar ko‘rishga;

tuproqning holati to‘g‘risidagi axborotning ishonchliligiga.

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi davlat nazorati O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

**16-modda. Yer egalarining, yerdan foydalanuvchilarning va yer uchastkalari ijarachilarining tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi huquqlari**

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkalarining ijarachilari quyidagi huquqlarga ega:

o‘z mablag‘lari hamda jalb qilinadigan boshqa mablag‘lar hisobidan tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish, tuproqning holatini yaxshilash, uning degradatsiyasi, buzilishi va ifloslanishining oldini olishga doir tadbirlarni mustaqil ravishda amalga oshirish;

tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish chog‘ida ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan foydalanish;

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tuproqqa yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini talab qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutidan (bundan buyon matnda Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti deb yuritiladi) o‘ziga tegishli yer uchastkasidagi tuproqning sifatini baholash to‘g‘risida axborot olish;

mexanizatsiyalashtirish, kimyoviy ishlov berish va o‘simliklarni himoya qilish vositalari, shuningdek, urug‘lik materialining tuproq holatiga ta’siri to‘g‘risida tegishli davlat organlaridan yoki xo‘jalik yurituvchi subyektlardan ma’lumotlar olish.

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkalarining ijarachilari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

**17-modda. Yer egalarining, yerdan foydalanuvchilarning va yer uchastkalari ijarachilarining tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi majburiyatlari**

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkalarining ijarachilari o‘ziga tegishli yer uchastkasida:

yerlardan foydalanish chog‘ida tuproqni muhofaza qilishni, uning unumdorligini saqlash, tiklash hamda oshirishni ta’minlashi, shuningdek, tuproqning ifloslanishiga va unumdorligi pasayishiga olib keladigan harakatlarga (harakatsizlikka) yo‘l qo‘ymasligi;

tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda dehqonchilikning ilmiy jihatdan asoslangan agrotexnik tadbirlariga rioya etishi;

tuproqning zichlanishiga olib keladigan texnika va texnologiyalardan foydalanmasligi;

tuproqqa oid tadqiqotlarni o‘tkazishda hamkorlik qilishi;

tuproqning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymasligi;

tuproqning sho‘rlanishiga qarshi agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishi;

sug‘oriladigan, haydaladigan yerlarning davriy ravishda tekislanishini amalga oshirishi;

sug‘orish rejimiga va normalariga rioya etishi;

tuproq-iqlim sharoitlarini va o‘simliklar ehtiyojlarini hisobga olgan holda mineral o‘g‘itlardan tabaqalashtirilgan tarzda foydalanishi;

tuproq degradatsiyasiga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi, tuproq degradatsiyasi hollari to‘g‘risida tegishli davlat organlarini xabardor qilishi;

shaharsozlik faoliyatini, geologik qidiruvni va foydali qazilmalarni qazib olishni, shuningdek, qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish chog‘ida tuproqning mavjud unumdor qatlamini sidirib olishi va saqlashi shart.

Yer egalarining, yerdan foydalanuvchilarning va yer uchastkalari ijarachilarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

**18-modda. Tuproqning unumdor qatlamini saqlash va yerlarni rekultivatsiya qilish**

Shaharsozlik faoliyatini, geologik qidiruvni va foydali qazilmalarni qazib olishni, shuningdek, qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish chog‘ida mazkur faoliyat turlarini amalga oshiruvchi subyektlar tomonidan tuproqning unumdor qatlami sidirib olinadi va saqlanadi.

Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish chog‘ida sidirib olingan tuproqning unumdor qatlamini qurilish tashkilotlari mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan belgilangan joylarga saqlash uchun olib chiqadi.

Shaharsozlik faoliyati, geologik qidiruv va foydali qazilmalarni qazib olish, shuningdek, qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa faoliyat uchun yerlarni ajratish loyihalarini ishlab chiqish chog‘ida tuproqning unumdor qatlami Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan loyiha ijrochilarining buyurtmasiga asosan aniqlanadi.

Shaharsozlik faoliyatini, geologik qidiruvni va foydali qazilmalarni qazib olishni, shuningdek, qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish chog‘ida tuproqning unumdor qatlami sidirib olinmaganligi va saqlanmaganligi fakti aniqlangan taqdirda, yetkazilgan zararning o‘rni belgilangan tartibda mahalliy byudjetga qoplanadi. Mazkur pul mablag‘laridan qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan sug‘oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun foydalaniladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda hamda o‘rmon fondi yerlarida geologik qidiruvni va foydali qazilmalarni qazib olishni, shuningdek, qishloq xo‘jaligiga oid bo‘lmagan boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar mazkur yerlarni o‘z mablag‘lari hisobidan rekultivatsiya qilishi shart.

**19-modda. Tuproqning holatini va sifatini baholash normalari**

Tuproqning holatini va sifatini baholash normalari Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan ishlab chiqiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan tegishli vazirliklar bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

**20-modda. Tuproqni o‘rganish**

Tuproqni o‘rganish tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish maqsadida tuproqning holatini o‘rganish, uning sifatini baholash hamda tuproq degradatsiyasi darajasini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Tuproqni o‘rganish O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining, Suv xo‘jaligi vazirligining, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining vakolatli tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va yer uchastkalarining ijarachilari o‘ziga tegishli yer uchastkalarida tuproqni o‘rganishni amalga oshirishi mumkin.

O‘rganish davomida tanlab olingan tuproq namunalarini tahlil qilish akkreditatsiya qilingan laboratoriyalarda amalga oshiriladi.

Tuproqni o‘rganish natijalari to‘g‘risidagi hisobotlar O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan belgilangan tegishli shakllar bo‘yicha rasmiylashtiriladi.

**21-modda. Tuproq xaritalari**

O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining, shuningdek, tumanlarning (shaharlarning) tuproq xaritalarida tuproqning turlari bo‘yicha geografik joylashuvi, mexanik tarkibi, sho‘rlanish, eroziya darajasi, o‘zlashtirilish davri va tuproq hosil qiluvchi jinslar aks ettiriladi.

Tuproq xaritasi tuproq qoplamini o‘rganishga, tuproq monitoringiga oid ma’lumotlardan va tuproq to‘g‘risidagi boshqa axborotdan foydalanish asosida tuziladi.

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining, shuningdek, tumanlarning (shaharlarning) tuproq xaritalarini tuzadi hamda ular asosida O‘zbekiston Respublikasining tuproq xaritasini tuzishni va yangilashni tashkil etadi.

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan tuproqni o‘rganish natijalari asosida tuproq sifatini baholash (bonitirovka), sho‘rlanish, eroziya xaritalari, agrokimyoviy, ekologik va boshqa tematik tuproq xaritalari tuziladi.

Tuproq xaritalarini tuzish va yangilash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

**22-modda. Tuproqqa oid ma’lumotlar fondi**

Tuproqni o‘rganish va tuproq monitoringi natijasida olingan tuproqning holati va sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlar (materiallar) tuproqqa oid ma’lumotlar fondini tashkil etadi.

Tuproqqa oid ma’lumotlar fondi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining, shuningdek, tumanlarning (shaharlarning) tuproq xaritalari;

tuproqning sifatini baholash (bonitirovka), sho‘rlanish, eroziya xaritalari, agrokimyoviy, ekologik va boshqa tematik tuproq xaritalari;

tuproqni o‘rganishga oid ma’lumotlar;

tuproq monitoringi ma’lumotlari.

Tuproqqa oid ma’lumotlar fondi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tasarrufida bo‘ladi.

Tuproqqa oid ma’lumotlar fondini hisobga olish, saqlash va undan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan belgilanadi.

**23-modda. Tuproq monitoringi**

Tuproq monitoringi tuproqdagi o‘zgarishlarni davriy kuzatib borish tizimi bo‘lib, u yerlar monitoringining tarkibiy qismidir.

Tabiiy va antropogen omillar ta’sirida tuproqning kimyoviy, biologik, fizikaviy hamda boshqa xususiyatlari o‘zgarishini aniqlash tuproq monitoringi obyektidir.

Tuproq monitoringi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan amalga oshiriladi.

Tuproq monitoringi natijalariga ko‘ra tuproqning holatidagi salbiy jarayonlarni prognoz qilish, ularning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tuproq monitoringi natijalari va tavsiyalar tegishli davlat organlariga taqdim etiladi.

**24-modda. Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar**

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tegishli sohaga oid ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta’lim tashkilotlari, shuningdek, boshqa ilmiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasida quyidagi ilmiy tadqiqotlar amalga oshiriladi:

tuproqning ekologik, meliorativ holatini va biologik faolligini yaxshilash;

tuproqning holatini va sifatini baholash;

agrotexnik, agrokimyoviy, meliorativ va eroziyaga qarshi texnologiyalarni ishlab chiqish;

tuproq degradatsiyasining oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish;

tuproqning holatini masofadan turib zondlashni, zamonaviy geoaxborot tizimlarini va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish.

**4-bob. Yakunlovchi qoidalar**

**25-modda. Nizolarni hal etish**

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

**26-modda. Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**

Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

**27-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta’minlash**

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o‘rtasida tushuntirilishini ta’minlasin.

**28-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo‘lgan o‘z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko‘rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta’minlasin.

**29-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi**

Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 2-fevral
№ O‘RQ—903

# TIZIMLI MUMMOLARNI HAL ETISHDA PARLAMENTNING O‘RNI QANDAY BO‘LISHI KERAK?

*Ma’lumki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda aholi ehtiyojlarini ta’minlash maqsadida ko‘p qavatli uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilib, kommunikatsiya tizimlari zamon talablari asosida modernizatsiya qilinmoqda. Ayni chog‘da gavjum shaharlarda tirbandlikning oldini olish va avtotransport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlarni kamaytirish maqsadida jamoat transportini rivojlantirish va yo‘llarni tartibga solish ishlari ro‘yobga chiqarilayotir.*

**Fikr**

Buning barchasi yaxshi. Ammo hali oldimizda zalvarli vazifalar ham turibdiki, ularni hal etish bugun nihoyatda dolzarb.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida shu yil 29-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan uy-joy va kommunal xo‘jaligi, qurilish, transport va ekologiya sohalaridagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ana shu masalalar chuqur tahlil qilindi. Ayniqsa, ushbu sohalarda haligacha yetarlicha kamchiliklar mavjudligi hamda ularni bartaraf etish choralari ko‘rilmayotganligi alohida urg‘ulandi.

Darhaqiqat, joylarda qurilish sanoatida zamonaviy standartlarni joriy qilish va sifatni ta’minlashda ko‘plab kamchiliklar mavjud. Bunga hududlarda olib borgan nazorat-tahlil faoliyatimiz davomida o‘zimiz ham ko‘p bor guvoh bo‘lmoqdamiz. Ilg‘or texnologiyalar va jihozlarning yetishmasligi hamda nazorat sustligi ham ish sifati pasayishiga olib kelmoqda. Asosiy kamchiliklardan yana biri esa qurilish maydonlarida materiallar sifat standartlariga mos kelmasligi hamda ishchi kuchining yetarlicha malakaga ega emasligi bilan bog‘liq. Qolaversa, qurilishlarda talon-toroj va o‘g‘rilik holatlari ham tez-tez kuzatiladi.

Shuningdek, yig‘ilishda uy-joylar va suv yetkazib berish tannarxlari, yo‘l qurilishida “yashirin iqtisodiyot” ulushi yuqoriligi, Toshkent shahrida tirbandlik muammosi hamda uning ekologiya va atrof-muhitga salbiy ta’siri masalalariga ham e’tibor qaratildiki, bularning qanchalik muhimligini barchamiz yaxshi tushunamiz. Endilikda mazkur masalalar nafaqat mutasaddi vazirlik va idoralar rahbar-xodimlarini, balki barcha-barchamizni birdek tashvishga solishi zarur.

Kezi kelganda aytish kerakki, so‘z yuritilayotgan sohalarda nazoratni kuchaytirish hamda ulardagi korrupsiyaviy holatlarga nisbatan murosasiz kayfiyatni shakllantirish orqali tizimni rivojlantirish vaqti allaqachon kelgan. Buning uchun har bir qurilishni belgilangan reja asosida amalga oshirish, qurilish materiallari va ishlarining sifatini nazoratga olish, sohada tender savdolari shaffof va ochiq o‘tkazilishiga erishish hamda “korrupsiyasiz soha” dasturlari bajarilishini ta’minlash, avtotransport vositalari va sanoat korxonalaridan chiqayotgan zaharli moddalarni mumkin darajada kamaytirish choralarini ko‘rish, energiya tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish talab qilinadi.

Ko‘rinib turibdiki, vazifalar nihoyatda zalvarli. Ularni faqatgina hamjihatlikda hal qilish mumkin bo‘ladi. Ya’ni bu nafaqat mutasaddi vazirlik va idoralar, ayni chog‘da parlamentimiz zimmasiga ham ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Aslida, so‘z yuritilayotgan muammolar kecha yoki bugun paydo bo‘lgan emas, ularning ildizi ancha ilgariga borib tutashadi. Shu ma’noda, Oliy Majlis Senatida bu borada muayyan ishlar boshlab yuborilgan. Yangilangan Konstitutsiyamiz asosida Senatni hududlar manfaatini ifoda etuvchi organga aylantirish maqsadida hududlar bilan ishlaydigan markaz tashkil qilingan bo‘lib, ayni paytda ushbu tuzilma tomonidan o‘rganish ishlari olib borilayotir.

Qolaversa, Senat Raisi boshchiligidagi O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashi yig‘ilishlarida jamiyatdagi eng muhim va dolzarb bo‘lgan sohalarda aniqlangan muammo hamda kamchiliklarni chuqur muhokama qilish va natijasi bo‘yicha zarur choralarni belgilash amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan.

Adolat nuqtayi nazaridan aytadigan bo‘lsak, hozirgi tezkor zamonda shularning o‘zi bilan kifoyalanish mumkin emas. Bu Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlashda senator va deputatlar yanada faollik ko‘rsatishlari kerak, deganidir.

Xo‘sh, tizimli muammolarni hal etishda parlamentning o‘rni qanday bo‘lishi kerak?

Avvalo, parlament vakillarining parlament nazorati doirasida Oliy Majlis palatalari, shuningdek, mahalliy Kengashlar tomonidan sohalarda olib borilayotgan ishlar muntazam ravishda o‘rganilib, natijasi atroflicha muhokama qilib borilishi maqsadga muvofiq. Aniqlangan kamchiliklarni esa vaqtida bartaraf etish hamda kelgusida yuzaga kelishining oldini olish maqsadida, jamoatchilik fikri asosida aniq choralar belgilab olinsa, nur ustiga nur bo‘ladi.

**Narimon UMAROV,**
**Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi.**

## MUROJAATLARGA IJOBIY YECHIM TOPILDI

Gap shundaki, Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasining 5 ta suv haydash nasosi elektr energiyadagi uzilishlar sababli to‘liq quvvatda ishlamayotgan edi. Bu esa fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda aholiga ekin maydonlarini sug‘orishda qiyinchilik tug‘dirib, ularning haqli e’tiroziga sabab bo‘layotgandi.

Senatning Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi hamda tegishli vazirlik va idoralar hamkorligida olib borilgan sa’y-harakatlar natijasida Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasiga har oyda elektr energiyasining shartnomaviy miqdoriga qo‘shimcha limitlar ajratilib, tegishli o‘zgartirishlar kiritib kelinmoqda. Hozirda mazkur boshqarmaga qarashli nasos stansiyalar kaskadida 5 qator nasos agregatlari bir maromda ishlamoqda. Qolaversa, Energetika vazirligi tomonidan ularni barqaror elektr energiyasi bilan ta’minlash maqsadida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJga ko‘rsatmalar berildi.

Umuman, senatorlarning shu kabi sa’y-harakatlari tufayli joylardagi muammolar o‘z vaqtida bartaraf etilmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

## FRAKSIYALAR HAYOTI

### O‘zLiDeP

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Bahrom Rahmonaliyev** partiya deputatlari va faollari ishtirokidagi tadbirda maktabgacha ta’lim tizimida davlat-xususiy sheriklik aloqalari yaxshi yo‘lga qo‘yilgani, biroq ushbu hamkorlik maktablar kesimida samarali amalga oshirilmayotgani bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirdi.

*“Maktabgacha ta’lim tizimida davlat-xususiy sheriklik aloqalari ijobiy natija ko‘rsatayotganligini ko‘rmoqdamiz. Lekin joylarda bunday loyihalarning afzalliklari va imtiyozlari haqida huquqiy targ‘ibot yetarli darajada tashkil etilmagan. Shu sababli ham davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan maktablar soni kamligicha qolmoqda. Besh toifadagi hududlarimiz uchun belgilangan imtiyozni davlat-xususiy sheriklik yo‘nalishidagi loyihalar uchun ham qo‘llash masalasini o‘ylab ko‘rishimiz kerak. Ana shunda davlat bilan hamkorlikda yo‘lga qo‘yilgan xususiy maktablarimiz soni ham oshadi, ulardagi narx-navo ham barqarorlashadi”,* dedi deputat.

### “Milliy tiklanish” DP

Qonunchilik palatasidagi “Milliy tiklanish” DP fraksiyasi a’zosi **Nodirbek Tilavoldiyev** shu kunlarda qizg‘in muhokama qilinayotgan qonun loyihasi haqida to‘xtalib, giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta’sir etuvchi moddalarning reklamasi uchun javobgarlikni kuchaytirish bilan cheklanib qolmaslik kerakligini ta’kidladi.

*“Biz zararli moddalarning reklamasi yoki targ‘iboti uchun belgilanayotgan javobgarlikdan tashqari, ularni olish, tashish, saqlash va jo‘natish uchun belgilangan jazo chorasini ham kuchaytirishga e’tibor qaratishimiz zarur. Qonun loyihasini ikkinchi o‘qishga tayyorlashda ushbu taklifimiz mas’ul qo‘mita tomonidan ko‘rib chiqilishiga umid qilaman”,* dedi deputat tegishli qonun loyihasiga oid muhokama jarayonida.

### “Adolat” SDP

Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va mavq4eini mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan sanaladi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Oydin Abdullayeva** opa-singillarimizning dunyoqarashini boyitishda san’at va madaniyatning ta’sirchan vositalaridan foydalanish ijobiy samara berishini qayd etdi.

*“Xorijiy filmlarda oddiy farroshdan to menejergacha yo‘lni bosib o‘tgan kuchli ayollar haqidagi syujetlarga tez-tez duch kelamiz. O‘zimizda ham xotin-qizlarni ruhlantiradigan, hayot yo‘llarida uchrayotgan to‘siq va muammolarni hal qilishga kuch topa olishiga undaydigan milliy kino va asarlarimizni ko‘paytirishimiz kerak”,* dedi deputat.

### O‘zXDP

O‘tgan haftada quyi palatada Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirining respublikada, shu jumladan, Toshkent shahrida atmosfera havosi ifloslanishining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati to‘g‘risidagi axboroti eshitilgan edi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a’zosi **Dilorom Imomova** saylovchilarni o‘ylantirib turgan masalada nuqtayi nazarini bildirdi.

*“Hududlarimizda turizmni rivojlantirishga qaratilgan bir qator Farmon va qarorlar qabul qilinishiga qaramay, mamlakatimizning so‘lim, tog‘li hududlarida, aholi yashash punktlariga yaqin joylarda, muhofaza etiladigan hududlarda ekologiyaga zarar yetkazuvchi sement zavodlarining qurilishiga ruxsat berilishiga chek qo‘yish kerak”,* dedi deputat va bu bo‘yicha bir qator takliflarini ilgari surdi.

### O‘zbekiston Ekologik partiyasi

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi muhokamasida Ekologik partiya fraksiyasi a’zosi **Islom Xushvaqtov** ekologiyani asrashga hissa qo‘shadigan tadbirkorlarni rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish taklifini ilgari surdi.

*“Mehnat bozorida, ayniqsa, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida “yashil ishchi o‘rni”ni tashkil qilish va bu bo‘yicha faol ish olib borayotganlarga imtiyoz berish vaqti keldi, deb o‘ylayman. “Yashil ishchi o‘rni” — bu atrof-muhitga minimal zarar yetkazadigan va ekologiyani saqlash hamda tiklashga hissa qo‘shadigan ishchi o‘rni hisoblanadi. “Yashil” texnologiyalardan samarali foydalanib kelayotgan ish beruvchilarga imtiyozlar qo‘llash masalasi kun tartibidan o‘rin egallashi lozim”,* dedi deputat.

2024-yilgi davlat dasturi loyihasi:

# ANIQ MAQSAD VA VAZIFALAR AHOLI FAROVONLIGIGA YO‘NALTIRILGAN

**Zumrad BEKATOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**



— Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimiga qamrovni oshirish bo‘yicha muayyan ishlar qilinmoqda. Xususan, davlat maktabgacha ta’lim muassasalari bilan birga davlat-xususiy sheriklik shaklidagi, xususiy va oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Natijada so‘nggi yillarda respublika bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni hamda bolalarning bu tizimga qamrovi darajasi oshdi. Bugungi kunda 2017-yildagiga nisbatan maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 5211 tadan qariyb 29,5 mingtaga yetkazilgan bo‘lsa, unga qamrov ham 2,5 barobar oshib, 72 foizga yetdi.

2024 yilgi davlat dasturi loyihasida ham maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar o‘rin olgani e’tiborga molik. Xususan, qamrov darajasini 2024-yil yakuniga qadar 76 foizga yetkazish maqsadida 1 400 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi, shu jumladan, oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish, investitsiya dasturi doirasida 38 ta maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va 134 tasini rekonstruksiyalash orqali 10 460 ta qo‘shimcha yangi quvvat yaratish, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrov darajasini 96 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Shuningdek, tayyorlov tizimini takomillashtirish uchun 170 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining maktabga tayyorlov guruhlarida zamonaviy planshetlar va sensor ekranli interfaol doskalardan iborat kompyuter guruhlarini ochish uchun texnikalar xarid qilish, takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida respublika bo‘yicha 30 nafar milliy master trenerni, hududlar kesimida esa 206 nafar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bo‘yicha 6 ming 661 nafar metodist va pedagogni o‘qitish hamda tayyorlash belgilanmoqda.

Dastur loyihasidan o‘rin olgan ushbu vazifalarning uddalanishi, shubhasiz, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrov darajasi oshishiga, 6 yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlov sifati yanada yaxshilanishiga, eng muhimi, sog‘lom bolalar safi kengayishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda dastur loyihasi Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan chuqur o‘rganilib, fraksiyalar, qo‘mitalarda keng muhokama qilinmoqda. Jumladan, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida ham atroflicha ko‘rib chiqilib, partiya saylovoldi dasturidan kelib chiqqan holda ta’lim va tarbiya tizimini isloh qilish, turizmni yanada rivojlantirishga oid qator takliflar bildirildi.

Umuman olganda, dastur loyihasida mamlakat taraqqiyotining 2024-yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan. Bularning barchasi aholining yashash sharoitlarini yaxshilash, ta’lim sifatini oshirish, bolalarga ta’lim va tarbiya berish jarayonida milliy va zamonaviy uslublar uyg‘unligini ta’minlashga zamin bo‘ladi.

**Qizilgul QOSIMOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**

— Keng jamoatchilik muhokamasidagi davlat dasturi loyihasida barcha soha qatori sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga ham alohida e’tibor qaratilgani quvonarli hol. Xususan, aholi salomatligini saqlash, o‘rtacha umr davomiyligini uzaytirish, surunkali kasalliklarni barvaqt aniqlash, aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirishga qaratilgan vazifalar belgilab qo‘yilgani ayni muddao bo‘ldi.

Shuningdek, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida bolalar orasida irsiy kasalliklarning oldini olish, selektiv skrininglar o‘tkazish, aniqlangan holatlarda davolash uchun aniq mablag‘ manbalari belgilab berilgani diqqatga sazovor.

Xalq demokratik partiyasi dasturida pensionerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam ta’minlangan oilalar, Muruvvat, Saxovat va Mehribonlik uylarida yashovchilar, aholining boshqa zaif qatlamlariga



tibbiy xizmat ko‘rsatish, ularni dori-darmonlar hamda tibbiy vositalar bilan ta’minlash va ijtimoiy dorixonalarning tarmog‘ini yaratish hamda faoliyatini tashkil etish ustidan samarali parlament va deputatlik nazoratini amalga oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Dastur loyihasida nazarda tutilayotgan vazifalar partiyamiz maqsad va g‘oyalariga uyg‘un hamda hamohangdir. Ayniqsa, onkologik, onkogematologik kasalliklarni erta aniqlash uchun birlamchi tizimda faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlarining “onkoogohlik” bo‘yicha malakalarini oshirishga e’tibor qaratilganligini qo‘llab-quvvatlaymiz.

Shu bilan birga, hududlardagi aholi sonidan kelib chiqib, yangi oilaviy shifokor punktlari va poliklinikalarni tashkil etish, buyrak kasalliklarini erta aniqlash bo‘yicha skrining amaliyotini joriy qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari bilan ta’minlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan vazifalar e’tirofga loyiq.

Inson salomatligi — eng buyuk ne’mat. U shunchalik bebahoki, hech qanday mezonga tenglashtirib bo‘lmaydi. Dastur loyihasidan o‘rin olgan vazifalar inson salomatligini mustahkamlash, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan oshirishga zamin yaratadi.

**Tursunoy MURATOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**

— Ta’lim sohasi davlatimiz e’tibor markazidagi eng muhim yo‘nalishlardan sanaladi. Bu bejiz emas. Chunki yosh avlodning intellektual salohiyatli bo‘lib kamol topishi ta’lim muassasalarida yaratilgan shart-sharoitlarga hamda ta’lim sifatiga bevosita bog‘liq.

Shu nuqtayi nazardan aytganda, 2024 yilgi davlat dasturi loyihasining asosiy qismi ta’lim



sohasiga qaratilgan bo‘lib, unda ushbu yo‘nalish 44 ta maqsadni o‘z ichiga olgan.

Birinchi maqsad — maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash bo‘lib, bu borada aniq chora-tadbirlar ko‘zda tutilmoqda.

Shu o‘rinda sifatli ta’lim berishda ustozlarning o‘rni beqiyosligini alohida qayd etish joiz. Shu bois loyihada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, kreativ fikrlash xislatlarini rivojlantirish, o‘qituvchilarning esa yangi metodikalar bo‘yicha tajribasini kuchaytirish, 100 nafar pedagogni xorij davlatlariga “El-yurt umidi” jamg‘armasi ko‘magida, tasdiqlangan reja asosida malakasini oshirish uchun yuborish ko‘zda tutilgani e’tiborga molik.

Shu bilan birga, sinov tariqasida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining olis va chekka hududlarida joylashgan o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun bepul avtobuslar qatnovini tashkillashtirish, shu orqali ularning xavfsiz va qulay borib kelishini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan.

Muxtasar aytganda, davlat dasturi loyihasida belgilangan vazifalar yurtimiz obodligi, xalqimiz farovonligini ta’minlashda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta’limga oid chora-tadbirlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda keng imkoniyat yaratadi. Biz, deputatlar, o‘z navbatida, dasturilamal hujjatda ilgari surilayotgan hayotiy tashabbus va takliflarni qo‘llab-quvvatlagan holda ularning ijrosini ta’minlashda parlament nazoratining ta’sirchan mexanizmlarini tatbiq qilish orqali yanada faol ishtirok etishimiz maqsadga muvofiqdir.

**“Xalq so‘zi”.**

# SUV HAVZALARINI ASRASH ZARURATI

*Oliy Majlis Senatining Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi tomonidan “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti bilan hamkorlikda 2-fevral — Butunjahon suvli-botqoqli hududlar kuni munosabati bilan “Suv havzalarini asrash — ekologik barqarorlikning muhim omili” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.*

**Davra suhbati**

Qayd etilganidek, mamlakatimizda qushlarning 460 dan ortiq turlari mavjud, ularning aksariyati respublikamiz hududi orqali bahorgi va kuzgi migratsiya davrida qisqa muddatda uchraydi va ularning asosiy qismi suv havzalari va ularning qirg‘oq zonalarida qo‘nim topadi.

Tabiiy muhitga ta’sir ko‘lami ortishi oqibatida nafaqat quruqlik, balki suv havzalari ekotizimlarida ham jiddiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Zero, suv havzalari nafaqat insoniyat moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish, balki o‘simlik va hayvonot dunyosining o‘ziga xos yashash muhiti sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

Ma’lumki, 1971-yil 2-fevralda “Xalqaro ahamiyatga ega, asosan, suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari hisoblangan suv-botqoq hududlari to‘g‘risida”gi konvensiya qabul qilingan va 1997-yildan buyon 2-fevral — Butunjahon suvli-botqoqli hududlar kuni sifatida dunyo jamoatchiligi, jumladan, yurtimizda ekologik sana sifatida nishonlab kelinadi.

O‘zbekiston ham shu Konvensiya tarafdori bo‘lib, mazkur xalqaro hujjat ro‘yxatiga “To‘dako‘l”, “Quyimozor”, “Dengizko‘l”, “Sudoche” va Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi kiritilgan. Bu hududlar ko‘chib yuruvchi qushlar uchun qulay qo‘nimgohlardir. Shu bois ham bunday hududlarni muhofazalash, ularning tabiiy-iqlimiy sharoiti barqarorligini saqlab qolish muhim hisoblanadi. Negaki, O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kirgan hayvonlarning 37 turi, shu jumladan, qushlar va baliqlar suvli-botqoqli hududlarda yashaydi.

Ko‘llarni ornitologik jihatdan kompleks o‘rganish, ayniqsa, ularda uchrovchi qushlarning tur tarkibi va soni dinamikasini tadqiq etish bo‘yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda hamda bu bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tadbirda e’tirof etilganidek, ayni vaqtda Senat tomonidan Ramsar ro‘yxatiga kiritilgan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida ekologik vaziyatni saqlab qolish va sog‘lomlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ustidan parlament nazorati yo‘lga qo‘yilgan.

Davra suhbatida bu boradagi dolzarb vazifalar xususida ham so‘z bordi. Jumladan, O‘zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro konvensiyalardagi ekologik sharoitimizga mos bo‘lgan moddalarini milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish, ilmiy tadqiqot va monitoring ishlarini yanada jonlantirish, ko‘llarning umumiy floristik va fauna tur tarkiblari, populyatsiyalarning zichligi, havzalarning gidrobiologiyasi haqida ma’lumotlar tayyorlash ishlarini yanada kuchaytirish talab etiladi.

Shuningdek, tadbirda Senat qo‘mitasi rahbarligida Yoshlar parlamenti a’zolari tomonidan ekinlarni tuproq ostidan tomchilatib sug‘orish tizimi texnologiyalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va tajribalar yakunlari bo‘yicha taqdimot o‘tkazildi.

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu texnologiya qo‘llanilganda suv sarfi egatlab sug‘orishga nisbatan 80, ildiz ustidan tomchilab sug‘orishga nisbatan 30, mineral o‘g‘it sarfi esa 60 foizga iqtisod qilinadi. Shu bilan birga, sug‘orishda qo‘l kuchi mehnatidan foydalanish 70 va agrotexnik ishlar 50 foizga qisqaradi.

Davra suhbatida bunday texnologiyalarni keng qo‘llash iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish imkonini berishi bilan ahamiyatli ekanligi qayd etildi.

**“Xalq so‘zi”.**

## DARYO VA KO‘LLARNING EKOTIZIM BARQARORLIGIDAGI AHAMIYATI

Takliflarga boy o‘tgan yig‘ilishda ishtirokchilar daryo va ko‘llarni, suv-botqoq hududlarini muhofaza qilish bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi hamda o‘zlarini qiziqtirgan savollariga soha mutaxassislaridan batafsil javob oldi.

## BAHOLASH FAOLIYATIGA OID QONUN LOYIHASI TAKOMILLASHTIRILMOQDA

*Parlament quyi palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi tomonidan Adliya vazirligi huzuridagi Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazida “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunni qo‘llashning amaldagi tartibi, shuningdek, sud ekspertlarining baholash yo‘nalishidagi faoliyati o‘rganildi.*

Dastlab deputatlar markazdagi ekspertiza laboratoriyalari va ulardagi zamonaviy texnik vositalar imkoniyatlari bilan yaqindan tanishdi.

Mutaxassislar bilan bo‘lgan ochiq va samimiy suhbat jarayonida sohaga oid dolzarb masalalar, ularni shakllantirishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan holatlar, baholash jarayonida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish masalalari muhokama qilindi.

Shundan so‘ng mas’ul qo‘mita tomonidan ikkinchi o‘qishda ko‘rib chiqish uchun tayyorlanayotgan “Baholash faoliyati yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi yuzasidan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.**

9-fevral — Alisher Navoiy tavallud topgan kun

# ILOHIY HIKMATLAR — TERAN QARASHLAR ASOSI



*Hadis islom olamida Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas g‘oyaviy-ma’naviy, ijtimoiy-huquqiy manba hisoblanadi. Islom dunyosi xalqlari tarixi, madaniyati, falsafasi va adabiyotida hadislarning ta’siri benihoya katta. Ushbu manba musulmon dunyosi ilm ahli tomonidan chuqur o‘rganilgan va bu bilan “muhaddislik” degan maxsus bir sohaga asos solingan.*

*Hadislarda nafaqat farz, vojib, sunnat, halol, harom, makruh kabi islom dini arkonlari, balki umuminsoniy fazilatlar, halollik, poklik, xayr-ehson, himmat, saxiylik, birodarlik va boshqa ko‘pgina musulmonchilik axloqi mezonlari, axloq-odobga doir ko‘rsatmalar ham talqin qilinadi.*

Hadislarda ifodalangan hayotsevarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik tushunchalari islom dunyosi badiiy adabiyotiga qudratli ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Ayni mazmundagi umrboqiy asarlar dunyo yuzini ko‘rdi. Bunday badiiy yaratmalarning islomiy g‘oyalar bilan yo‘g‘rilishi ularning g‘oyaviy ta’sirchanligi va badiiy balog‘atining haddi a’losiga yetkazilishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jumladan, ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy o‘z ijodida hadislarga juda ko‘p bor murojaat qilgan. Asarlarida ularning mohiyatini latif tashbehlar bilan ochib berishga intilgan.

Atoqli navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov islomiy manbalarning Alisher Navoiy ijodidagi o‘rni haqida shunday yozadi: “Navoiy ijodining yana bir muhim manbai diniy va so‘fiy adabiyotlardir... Ammo Navoiyning diniy adabiyotga munosabati, diniy adabiyotlar, xususan, Qur’on va hadislar shoir ijodining doimiy va muhim manbalari bo‘lgani, o‘z davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’naviy masalalarini ulug‘ shoir ko‘p vaqt shu asarlariga suyanib hal etganligi shu paytgacha deyarli o‘rganilmadi, hatto bundan ko‘z yumib kelindi”.

Darhaqiqat, sobiq ittifoq davrida buyuk ajdodimiz merosi bor holicha o‘rganilmadi. Har bir asari hukmron mafkura prizmasidan o‘tkazilib baholandi, munosabat bildirildi. Ayniqsa, shoirning diniy-tasavvufiy mazmundagi bitiklariga yetarli urg‘u berilmadi, ular aksar hollarda mohiyatan buzib talqin qilindi.

Aslida Alisher Navoiy hadislarni shunday yuksak mahorat bilan badiiyatga ko‘chirganki, ular o‘quvchi qalbiga tez o‘rnashadi. She’riy misralarga mazmunan muvofiqlashtirilgan hadislarni ham ulug‘ shoir ijodida ko‘p kuzatamiz. Masalan:

***Bulardin gar a’lo, gar adno durur.***  
***Kim, andin xaloyiqqa izo durur.***  
***Shah o‘lturmak avlodur ul elni bot.***  
***Ki, debdur Nabiy: “Uqtul ul-mu’ziyot”.***

Yoki:

***Xaloyiqqa iyzo alarg‘a sifot,***  
***Nabiy dedikim: “Uqtul ul-mu’ziyot”.***

Alisher Navoiy tanlagan bunday uslub u yaratgan she’riy misralarning g‘oyaviy-badiiy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Hadislar insonni axloqan pok va ruhan balog‘atga yetkazishda muhim omil hisoblangani tufayli adiblar bunday ilohiy-irfoniy sarchashmalarga tez-tez murojaat qilishgan. Badiiy adabiyotda axloqiy-ma’naviy yo‘nalishdagi 40 hadis ta’sirida “Chihil hadis” (Arbain) yaratish an’anasi shakllangan.

Ulug‘ mutafakkir shoir Abdurahmon Jomiy eng sahih, yodlashga oson bo‘lgan qisqa, axloqiy mavzudagi hadislardan 40 tasini ajratib olib, ular mazmunini forsiyda nazmga solish orqali “Chihil hadis” asarini yaratdi. Alisher Navoiy esa ustozi Jomiyning ijozatini olib, uning ushbu asarini forsiydan turkiyga o‘girdi. “Arbain” asari shu orqali dunyo yuzini ko‘rdi.

Alisher Navoiy asarlarining manbalari haqida gap borganda, shuni e’tibordan qochirmaslik lozimki, u o‘zigacha bo‘lgan arab, fors va turkiy adabiy-ma’naviy meros bilan puxta tanishib chiqqan. Ularning eng yaxshi an’analaridan saboq olib, ijodiy adabiy tajribasida rivojlantirgan. Ulug‘ shoir o‘sha javohirot xazinasidagi ijtimoiy-ma’naviy, axloqiy-ma’rifiy tarbiyaga oid asarlarini alohida e’zozladi. Ularda aks ettirilgan go‘zal fazilatlar bilan o‘z qahramonlarini bezadi. O‘zi ham ayni shu ruhdagi asarlar yozish bilan soha ravnaqiga katta hissa qo‘shdi. Bunday asarlarning barcha-barchasi kelajak avlodning yuksak salohiyatli insonlar bo‘lib yetishishida dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir”dan o‘rin olgan ruboiylarida hayotning bebaqoligi, umrning o‘tkinchiligi, odam o‘z umrini yaxshilikka bag‘ishlasagina uning nomi abadiy qolishi, “olam guli” bo‘lgan inson uchun eng muhim ne’mat oltin-kumush emas, balki odob ekanini ta’kidlaydi.

Go‘zal xulqlar — hayo va ibo, mardlik, kechirimli bo‘lish, sabr-qanoat, odillik, muloyimlik, saxiylik, mehribonlik, ahdga vafo, do‘stga sadoqat inson siyrati go‘zalligidan nishona. Din insonlar o‘rtasida xushxulqlilikni targ‘ib etadi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam “Din nasihatdir”, deya marhamat qiladi. Chunki dinimizning asl g‘oyasi yomon fe’l-atvordan poklangan, odobi go‘zal, xushxulq insonni tarbiyalashdir. Shu jihatdan “Nazm ul-javohir”ni yaxlit holida nodir axloq targ‘ibotiga qaratilgan majmua deyish mumkin.

Ulug‘ shoir davr ahlini illatlardan xoli ko‘rish va loqaydlikka keskin zarba berishni istaydi. Poklangan inson esa din va iymon nuridan bahramand bo‘lishga sazovor.

Chunonchi, “Nazm ul-javohir”dagi dastlabki hikmat va ruboiy vafo haqida. Tabiiyki, ular ham iymon nuri bilan yo‘g‘rilgan.

***Kim olam aro diyonati yo‘qtur oning,***  
***Din nuktasida fatonati yo‘qtur oning,***  
***Dindor ulkim, xiyonati yo‘qtur oning,***  
***Yo‘q din angakim, amonati yo‘qtur oning.***

Ruboiyda barcha insoniy fazilatlarning qamrab olinishi kishini hayratga soladi. Ya’ni ahdiga vafo — iymon; hayo, vafo, saxovat — iymon; oliy himmatlilik — iymon. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, iymon — qalbga quvvat, ogohlik, poklik...

Shoir yana bir to‘rtligida kishining iymoni ahdiga vafo qilishida ko‘rinishini ta’kidlaydi:

***Iymoni aningki kufrig‘a sotir erur,***  
***Chin nukta demakka ul kishi qodir erur,***  
***Har kimsaki iymon ishida mohir erur,***  
***Iymonini bilki, otidin zohir erur.***

Iymonning bir qismi hayo, bir qismi vafo, bir qismi saxiylikdir:

***Uch qism ila iymong‘a bino fahm ayla,***  
***Avvalg‘isini oning hayo fahm ayla,***  
***Ikkinchisini dog‘i vafo fahm ayla,***  
***Uchunchini bilmasang, saxo fahm ayla.***

Hayo, vafo va saxiylik — iymon binosining ustunlari. Bu go‘zal xulqlar insonlarni doim yaxshilik sari yetaklaydi, yomon ishlardan saqlaydi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning “Hayo faqat yaxshilik keltiradi”, mazmunidagi hadisida hayoning yaxshilikni harakatga keltiruvchi kuch sifatidagi qudrati ta’kidlangan. Ulug‘ mutafakkir ham ahdga vafoni iymonning yana bir nishonasi, deb talqin qiladi. To‘rtinchi misradagi saxovat esa iymon yetukligi belgisi. O‘zgalar muhabbatini uyg‘otuvchi ham, sharaf va martaba orttiruvchi ham, kishini sevikli qiluvchi ham saxovatdir.

Qur’onning ko‘pgina oyatlaridagi singari payg‘ambarimiz hadislarida ham mo‘min-musulmonlarni bilimli, ma’rifatli, o‘qimishli bo‘lishga da’vat, ilmning dinni mustahkamlash, e’tiqodni poklashdagi ta’siri, inson hayoti va jamiyatdagi o‘rni, uning fazilati haqida ajoyib fikrlar mavjud. Ilm — millatning farovon yashashi, dinning mustahkamlanishi uchun kerak bo‘lgan ma’naviy xazina. Mo‘min va mo‘minalarning dinu millat, xalq, fan foydasiga yaraydigan ma’naviy boylikni o‘rganishga sarflagan vaqti har qanday toatdan afzal. Boisi har qanday toatning boshi ma’rifatdir.

Muxtasar aytganda, o‘zining keng qamrovli ma’naviy merosida o‘lmas umumbashariy g‘oyalar targ‘ibotchisi qiyofasida namoyon bo‘lgan ulug‘ shoir “Nazm ul-javohir”da ham o‘z an’anasiga sodiq qolgan. Mazkur durdonalar yurtimizda barkamol shaxsni tarbiyalash, milliy g‘oyani yanada takomillashtirishga xizmat qilishda davom etadi.

**Hadiyabonu OCHILOVA,**  
**Buxoro shahridagi 4-ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.**



# ALLOMALAR MEROSI — AVLODLAR QUYOSHI

*Yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarimizni yot g‘oyalar ta’siridan asrash, ularning ommaviy madaniyat va din niqobi ostidagi buzg‘unchi oqimlar ta’siriga berilmasligining oldini olish bugun har qachongidan ham dolzarb tus olmoqda. Shu bois Sharqda kuzatilgan har ikki Renessans davrida ham dunyoviy, ham diniy ilmlar bo‘yicha jahonning eng ilg‘or olimlari qatorida turgan, islom dini va umumbashariy sivilizatsiya rivojiga benazir hissa qo‘shgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Muin Nasafiy, Imom Moturidiy kabi buyuk mutafakkir allomalarimizning insoniyat ravnaqiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan ta’limotlari o‘rganilmoqda, tadqiq qilinayotir. Hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e’tirof etilgan durdona asarlarning chop etilishi yoshlar ta’lim-tarbiyasida katta rol o‘ynamoqda.*

## Taqdimot

Kuni kecha O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan 2023-yilda nashrga tayyorlangan yangi kitob va risolalarning navbatdagi taqdimotida shu xususda so‘z bordi.

Taqdimotda dastlab Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil davomidagi faoliyati va nashrga tayyorlangan Imom Buxoriyning “At-Tarixu-s-sag‘ir”, Abu Ja’far Muhammad ibn Abu Xotim Varroq Buxoriyning “Shamoyili Buxoriy”, Abu Azabaning “Ar-Ravzatul bahiyya”, Imom Dorimiyning “Sunani Dorimiy”, Alouddin Kosoniyning “Kosoniy aqidasi”, Sayyid Abdulmojid g‘avriyning “Hadis ilmi istilohlari ensiklopediyasi” asarlari, shuningdek, “Islom dinida tinchlik” va “G‘uluvning xatarlari” nomli risolalar taqdim etildi.

Taqdimotda so‘zga chiqqanlar Imom Buxoriy va alloma ajdodlarimiz merosini o‘rganishning ahamiyati, taqdim etilayotgan kitoblarning bugungi kundagi ilmiy qiymati, mutafakkirlar asarlarini tadqiq etishning hozirgi holati va istiqboldagi vazifalari, shuningdek, yangi O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohada olib borilayotgan islohotlar haqida batafsil to‘xtaldi.

O‘tgan davr mobaynida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan “Jaholatga qarshi — ma’rifat” g‘oyasi asosida jami 1400 ga yaqin ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi.

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita bilan hamkorlikda diniy mazmundagi 442 ta material tahlil qilindi va 124 ta videorolik shaklida raddiya tayyorlanib, shundan 114 tasi “YouTube”ga joylandi. “Hadis ma’rifati” ruknida 65 ta videodars, “Buxoriyga ehtirom” rukni ostida 40 ta videoinfografika, “Nodir yozma manbalar” rukni ostida 11 ta videolavha tayyorlandi.

“Allomalarimiz haqida 10 haqiqat” turkumidagi ko‘rgazmali vositalar yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maqsadida, 20 mingdan ortiq muassasa va tashkilotlarga, shuningdek, nashr etilgan yangi asarlar jahon ilmiy hamjamiyatini buyuk ajdodlarimiz merosi bilan yaqindan tanishtirish maqsadida Al-Azhar islom tadqiqotlari majmuasi, Islom tarixi, san’ati va madaniyatini tadqiq qilish markazi (IRCICA) va boshqa turdosh xalqaro hamkor idoralarga yetkazildi.

Tadbirda Al-Azhar islom tadqiqotlari majmuasi bosh kotibi, doktor Muhammad Nazir Ayyad hamda Islom tarixi, san’ati va madaniyatini tadqiq qilish markazi bosh direktori, professor Mahmud Erol Qilich video shaklida tabrik yo‘lladi. Taqdim etilayotgan yangi nashrlarga Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy faoliyatining yorqin natijasi sifatida yuksak baho berib, hamkor muassasalarni, o‘zbek xalqini ushbu muhim voqea bilan muborakbod etdi. Xodimlar olib borayotgan tadqiqot va tarjimalar alloma ajdodlarimiz merosini tiklashga, zamondoshlarimizni ular qoldirgan boy ma’naviy xazinadan ko‘proq, to‘liqroq bahramand etishga va pirovardida islom ilmlarini yanada taraqqiy toptirishga xizmat qilishini alohida ta’kidladi.

Taqdimotda so‘zga chiqqanlar buyuk ajdodlarimizning islom ilmlari sohasidagi ilmiy merosi ayni kungacha dunyo musulmonlari hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelayotganini, xususan, yurtimizdan chiqqan allomalarning islom ilmlari rivojiga munosib hissa qo‘shganini alohida e’tirof etdilar.

Darhaqiqat, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashrga tayyorlangan yangi kitob va risolalar islomning asl qadriyat va tamoyillarini hamda insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etishda, zamonlar osha yuksak qadr-qiymatga ega bo‘lib borayotgan asarlarning tub mohiyatini ochib berishda muhim dasturilamaldir.

O‘zbek tilida taqdim etilgan mazkur asarlar mutafakkirlarimiz ilmiy qarashlari ma’nosini yanada yaxshiroq anglashga, ular ta’limotini chuqurroq tushunishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Nurulloh OSTONOV**  
**(“Xalq so‘zi”).**

# SAN’ATNING OLIY NAMUNASI

*Insoniyat tafakkurining yorqin mahsuli bo‘lgan maqom san’atini keng targ‘ib qilish, uni, ayniqsa, yoshlar orasida ommalashtirish bo‘yicha yangi loyihaga qo‘l urildi.*

## Tadbir

Gap shundaki, “Yangi O‘zbekistonda milliy maqom Renessansi an’analari” nomli ma’rifiy tadbirga start berildi. O‘zbek milliy maqom san’ati markazi, Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli hamkorligida tashkil etilayotgan ushbu tadbir Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida boshlandi.

O‘zbek milliy maqom san’ati xalqimizning ulkan ma’naviy merosidir. Unda o‘zbek xalqining qadim tarixi, ma’naviy dunyosi, badiiy falsafasi ruhi mujassam. Shu bois necha asrdirki maqom san’atning oliy namunasi sifatida alohida ardoqlab kelinmoqda. Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ta’bir joiz bo‘lsa, o‘zbek mumtoz musiqasi tarixida yangi davrni boshlab berdi. Negaki, ushbu hujjat ijrosi doirasida maqom san’ati yanada rivojlantirilib, butun dunyo bo‘ylab tan olinmoqda, desak, ayni haqiqat.

— Maqom — tinglovchilarni hayratga solib kelgan yirik musiqiy qomus, — deydi O‘zbekiston xalq artisti, Maqom ansambli badiiy rahbari Abduhoshim Ismoilov. — Maqom san’ati murakkab va “xos”lar san’atidir. Ammo bugungi zamon talabidan kelib chiqib, maqom san’atini keng joriy qilish maqsadida yangicha yo‘nalishlar va usullarda ish olib borilyapti. Bunda davlatimiz rahbarining maqom san’atini takomillashtirishga qaratayotgan e’tibori bizga katta kuch va madad bo‘layotir.

Bugun milliy musiqa san’atining yoshlar o‘rtasida targ‘ibotiga qaratilgan ma’rifiy tadbirni boshladik. Uni respublikamizning barcha hududi, jumladan, oliy o‘quv yurtlarida o‘tkazishni maqsad qilganmiz.

Tadbirda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli jamoasi tomonidan maqom san’atining nodir namunalari ijro etildi, milliy cholg‘uchilar tomonidan musiqiy kompozitsiyalar taqdim etildi.

Jonli ijrodagi har bir asar davomli olqishlar bilan qarshi olindiki, bu maqom san’ati yoshlarning qalbiga kirib borayotganidan, ularga ma’naviy-ruhiy ozuqa berayotganidan yorqin dalolatdir.

**Shohsanam YO‘LDOSHEVA,**  
**O‘zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi.**

# KO‘KDALADAN YEVROPA BOZORLARIGA YO‘L

*Qashqadaryo viloyatining Ko‘kdala tumanida o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan Italiyaning “Kotonella” brendi yurtimizda tayyorlagan mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi bozoriga ilk bor “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” yorlig‘i ostida jo‘natdi.*

## To‘qimachilik

Ayni paytda uch xil dizayndagi 50 mingdan ortiq dastlabki mahsulotlar Yevropa davlatlariga yetkazildi.

O‘zbek paxtasidan yaratilgan trikotaj mahsulotlari eksporti hajmini sezilari darajada oshirishni maqsad qilgan ushbu korxonada bir yilda 8 million donadan ko‘p kiyim-kechaklar ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

Birinchi bosqichda 1 million yevro miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya jalb qilingan holda 100 ta yangi ish o‘rni ochildi. Korxonaga Italiyadan eng so‘nggi rusumdagi zamonaviy tikuv dastgohlari olib kelib o‘rnatildi. Bugungi kunda bir oyda 350 ming dona kiyim-kechak ishlab chiqarilmoqda.

Tikuv dastgohlarini boshqarish, kiyim-kechaklarni Yevropa andozalariga mos va sifatli tayyorlash maqsadida italiyalik mutaxassislar tomonidan o‘quvlar tashkil etilmoqda.

— O‘zbekiston paxtasi sifati, tolasining pishiqligi va mayinligi bilan alohida ajralib turadi, — deydi korxonaning sifat nazoratchisi, italiyalik mutaxassis Jan Luka Mariatti. — Undan dunyo standartlariga to‘la javob beradigan mahsulotlar tayyorlash mumkin. Aynan shu jihatlar va yurtingizda qulay investitsiya muhiti mavjudligi tufayli bu yerda korxona faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Aytish joizki, korxona “Ko‘kdala klasteri” paxta-to‘qimachilik klasteri negizida tashkil etilgan bo‘lib, ayni hamkorlik nafaqat yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, balki sanoat korxonalarida xalqaro brend tajribasini joriy qilishga ko‘maklashish imkonini ham beradi.

**Faxriddin BOZOROV**  
**(“Xalq so‘zi”).**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi jamoalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi Baxtiyor Islomovga volidai muhtaramasi

**Munavvar ISAXANOVA**ning

vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi jamoasi Milliy markazning mas’ul xodimi Malika Tolipovaga onasi

**Dilora ARZUMETOVA**ning

vafoti munosabati bilan chuqur ta’ziya izhor etadi.

REKLAMA

## O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

QUYIDAGI KAFEDRALAR BO‘YICHA LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI:

**Akademik xonandalik va opera tayyorlovi kafedrasi:** professor — 2 o‘rin, dotsent — 1 o‘rin, katta o‘qituvchi — 1 o‘rin;

**Fakultetlararo fortepiano ijrochiligi kafedrasi:** professor — 1 o‘rin, katta o‘qituvchi — 1 o‘rin;

**Kompozitorlik va cholg‘ulashtirish kafedrasi:** professor — 1 o‘rin, katta o‘qituvchi — 1 o‘rin;

**O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi:** professor — 1 o‘rin, dotsent — 1 o‘rin;

**Musiqiy pedagogika kafedrasi:** dotsent — 2 o‘rin, katta o‘qituvchi — 1 o‘rin;

**Orkestr dirijyorligi kafedrasi:** dotsent — 1 o‘rin;

**Musiqa nazariyasi kafedrasi:** katta o‘qituvchi — 2 o‘rin;

**Maxsus fortepiano kafedrasi:** katta o‘qituvchi — 1 o‘rin.

**Tanlovda ishtirok etish uchun da’vogarlar quyidagi hujjatlarni taqdim qilishlari lozim:**

rektor nomiga ariza;

xodimlar shaxsiy varaqasi;

oliy ma’lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarning nusxalari;

o‘quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari ro‘yxati;

mutaxassislik bo‘yicha oxirgi uch o‘quv yilida malaka oshirganligi to‘g‘risidagi guvohnoma va sertifikatlar nusxalari.

Arizalar e’lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida O‘zbekiston davlat konservatoriyasining xodimlar bo‘limi tomonidan qabul qilinadi.

**Manzil:** 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142. 15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Sherqulov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.15 Topshirildi — 23.05 1 2 3 4 5 6